



## HARBIY TA'LIMDA AN'ANAVIY VA INTERFAOL TA'LIM BIRLIGI IMKONIYATLARI

---

*Saydullayev Ulug'Bek Ubaydullayevich*  
*O'R QK Akademiyasi kafedra boshlig'i*

**Rezyume:** Ushbu maqolada zamonaviy harbiy ta'lim jarayonida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim berishning imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilingan. An'anaviy ta'limning ijobiy va zamon talablariga javob bera olmaydigan jihatlari o'rganilgan. Shu bilan birga noan'anaviy ta'lim imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy ta'lim, harbiy ta'lim jarayoni, an'anaviy ta'lim, noan'anaviy ta'lim, zamon talablari, ta'lim imkoniyatlar.

Agar ta'lim-tarbiya, bilim olishga intilish, tafakkur rivoji uchun izlanish bo'lmaganida insoniyat o'zining hozirgi taraqqiyotiga erisha olmagan bo'lar edi[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020-yil 1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Biz keng ko'lamlilik demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak" dedi, sohadagi islohotlarga alohida to'xtalib, o'qituvchilar ishini yengillashtirish uchun kelgusi yilda ta'limni raqamlashtirish ishlarini yakunlab, "Onlayn maktab", "Raqamli va xavfsiz maktab", "Elektron darslik", "Elektron kundalik" kabi tizimlar joriy etilishini, 2020-yil oxirigacha maktablarni keng qamrovli internet tarmog'iga ulash 100 foizga yetkazilishi [1] haqidagi tashabbuslari bugungi kunga kelib o'z mevasini bera boshladi.

Bu albatta ta'lim jarayonini yangicha tashkil etish, kerakli metod va shakllarni tanlash, fan dasturlarini zamonaviy talablarga mos ishlab chiqish bilan amalga oshmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar an'anaviy ta'lim va noan'anaviy ta'limni uyg'unlashtirish sababli deb hisoblash mumkin.

An'anaviy dars - muauyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir[3].

O'quv materialini yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars - ko'p hollarda ta'lim jarayoning birdan-bir modeli bo'lib qo'lmoqda. Ma'lumki an'anaviy



darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois, an'anaviy darsni "Markazda o'qituvchi turgan o'qitish modeli" deb ham atashadi. An'anaviy darsning asosiu maqsadi - dars mavzusining asosiu mazmunini, tushuncha va faktlarini o'qituvchi tomonidan kursantlarga yetkazish va tushuntirishdan iborat. Dars - oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatilishidan boshlanadi. Yangi mavzuni yoritish, turli mashqlar yordamida mustahkamlash, darsga yakun yasash, xulosalash, baholash va uuga vazifa topshirish bilan yakunlanadi[3].

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliu mashq kabi metodlardan foudalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, kursantlar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aulanib qo'ladilar. Odatda, an'anaviy dars berishni - passiv dars berish metodi sifatida qaraladi. Lekin darsda kursantlarning faol yoki passivligi darsni qandau o'tishga va uni rejalashtirishga bogliq. An'anaviy darsning samaradorligini oshirish va darsda kursantlarning faolligini oshirish uchun yangi materialni mauda-mauda bo'laklarga bo'lib o'tish tavsiya etiladi. Shuningdek, kursantlarning bu materialni qandau o'zlashtirib borayotganliklarini nazorat qilib borish va bu maqsadda maqsadida turli xil mashq va topshiriqlarni bajartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan kursantlarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil ragbatlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliu hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o'uinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, kursantlarni amaliu mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash metodlaridan foudalanish, ta'lim vositalaridan jouida va vaqtida foudalanish talab etiladi.

*An'anaviy dars o'tishda mashg'ulotning bosqichlarini quyidagicha rejalashtirish mumkin.*

1. *Kirish.* O'tilgan materialni takrorlash; darsning maqsadini tushuntirish; yangi darsning mavzusi va mashg'ulot rejasi bilan tanishtirish.

2. *Yangi mavzuni yoritish.* Yangi mavzuni kichik-kichik bo'lakchalarga bo'lib berish; rang-barang misollarni imkoni boricha ko'rgazmali taqdim qilish; mavzudan chetlashmaslik; materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish; kursantlarning tushunganlik darajasini tekshirib borish; teskari aloqani ta'minlash.

3. *«Teta-poya» mashq.* Biror misol (yoki masalani) kursantlar bilan qadamba - qadam hal qilish va tahlil qilish:



4. *Yo'naltirib turiluvchi mashq.* Kursantlar mashq (yoki masalani) mustaqil bajarishadi, o'qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

5. *Mustaqil bajariladigan mashq.* Kursantlar mashqni mustaqil holda o'qituvchi yordamisiz bajarishadi.

6. *Kursantlarning tushunganlik darajasini tekshirish.* Nazorat savollari bilan murojaat etish va mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash.

7. *Yakunlash.* Dars mavzusining asosiy tushunchalarini va o'quv maqsadlarini jamlash[4].

Ko'rinib turibdiki, an'anaviy dars mashg'ulotida barcha dars bosqichlari qadamba-qadam amalga oshiriladi va hech qanday g'ayrioddiylik mavjud emas. Bu kursantni darsga bo'lgan ishtiyoqining sustligini va dars o'tishdagi bir xillikni ta'minlaydi. Shunday bo'lsada, an'anaviy o'qitishda o'ziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlar mavjuddir.

Zero, an'anaviy ta'lim metodlari quyidagi **afzalliklarga** ega:

Maxsus fanlarni o'rganishda zarur bo'ladigan ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali ekanligi. Bu an'anaviy ta'limda ilmiylik tamoyilining amal qilayotganligi va kursantda tizimli bilimlarning hosil bo'layotganligidir.

O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi, ta'limning tarbiyaviy xarakterini ifodalaydi. Bunda talabalar sust ishtirok etsalar ham, dars mashg'ulotida ular yuqori intizom na'munalari ko'rsatadilar.

Vaqtdan unumli foydalanish natijasida barcha mashg'ulot bosqichlarining to'liq amalga oshishi va vaqt taqsimotining izchillik bilan namoyon bo'lishi kuzatiladi.

*An'anaviy ta'lim metodlari bugungi kun talabiga javob bermaydigan jihatlari ham borki*, bu o'quv jarayonida noan'anaviy ta'lim metodlarini qo'llash ehtiyojlarini paydo qiladi. Bu kamchiliklar quyidagilardir.

Kursantlar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar, dars mashg'uloti markazida hamda asosiy boshqaruvchilik rovida o'qituvchining turganligi bunday passivlikka olib keladi.

O'qituvchining to'la nazorati barcha kursantlar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi. Chunki, kursantlar tomonidan amalga oshirilayotgan barcha xatti-harakatlar qat'iy talab asosida sodir bo'ladi. Bu kursantda ijodiy tashabbusni uyg'otmaydi.



Kursantlar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydilar. Chunki, har bir dars bosqichi muayyan qoidalarga asoslanganligi va bu bosqichlar o'qituvchining ixtiyorida sodir bo'layotganligi muloqotning har xil shakllarini namoyon bo'lishiga ehtiyoj tug'dirmaydi.

Eslab qolish darajasi hamma kursantlarda bir-xil bo'lmaganligi sababli, guruh bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin. Ya'ni, an'anaviy ta'limda mashg'ulotga va bilish jarayoniga kursantlarni qiziqtiruvchi har xil uslublarni, xotirani mustahkomlovchi o'yinli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlaridan foydalanilmasligi mazkur oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Mustaqil o'rganish va mustaqil qarorlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi. Kursantni ijodiy fikrlashga undovchi kuchning mavjud emasligi tabiiy ravishda yangi g'oyalarni ishlab chiqish uchun sharoitlarni yuzaga keltirmaydi.

Shunday qilib, bugungi kunda dars mashg'ulotlarida ham an'anaviy, ham noan'anaviy o'qitish modellaridan foydalaniladi. Bunda mavzuning xususiyatiga, o'zlashtiriladigan materialning mazmuniga va o'quv maqsadlarining tarkibiga va nazorat tizimining qanday tashkil etilish jihatlariga e'tibor beriladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman kursantlar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish kursantlarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan kursantlarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, kursantlarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

Harbiy ta'lim-tarbiyada innovatsion texnologiyalardan foydalanish allaqachon zamon talabiga aylanib bo'lgan. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar yordamida barcha fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillashtirib o'tkazish mumkin. Innovatsion texnologiyalar nafaqat tinglovchini balki o'qituvchilarni ham innovatsion yondashuv orqali ko'p mexnat qilishga va izlanishga chorlamoqda. Bugungi kunda tez o'zgaruvchan axborot asrida bilimlar manbasi va uning ko'lami kundan kunga oshib bormoqda. Bu esa zamondan ortga qolmaslikni va zamonaviy bilimlarni harbiy ta'lim-tarbiyada innovatsion texnologiyalar orqali o'qitishni zarurligini ko'rsatmoqda.



Demak, harbiy fanlar bo'yicha ma'ruza materiallarini yetkazishda an'anaviy ta'limning yodlash prinsipidan foydalanib asosiy qoidalarni va majburiyatlarni yodlashda foydalanish lozim. Interaktiv metodlardan foydalanib guruhiy mashg'ulotlarda yangi texnika va qurollarni, texnik vositalarni, asbob va anjomlarni tarkibiy qismlari bilan tanishish va foydalanishni o'rganishda foydalanish mumkin. Interaktiv metodlardan foydalanib dala o'quv mashg'ulotlarida harbiy xizmatchilarni tez qaror qabul qilishga va harakatlarini baholashda foydalanish taklif qilinadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. - Vatanparvar, 2020 yil 12 yanvar.
2. Педагогик маҳорат: схема ва расмларда/Методик қўлланма. ТДПУ, 2012.
3. Ишмухаммедов Р.Д., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. (таълим тизими ходимлари, тарбиячи ва мурабийлар учун ўқув қўлланма)-Т.:2017.-368 б.
4. Ёўлдошев Ж.Г., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш.-Т, 2008.